

DAVLAT BOSHQARUVINING MA'MURIY HUQUQIY SHAKLLARI

Allayorova Sayohat Uralovna

Surxondaryo viloyati yuridik
texnikumi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Davlat boshqaruvining ma'muriy huquqiy shakllariga oid normalar, tamoyillar, manbalar va mazkur mavzuning eng muhim sohalari bilan tanishtirish, talabalarda o'z kasbi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Mazkur mavzu orqali talabalarga davlat boshqaruvining ma'muriy-huquqiy shakllari mavzusini o'qitishning nazariy va amaliy jihatlariga oid fundamental bilimlar, jumladan, boshqaruvning ma'muriy-huquqiy shakllar va turlari tushunchalari va o'ziga xos xususiyatlari, huquqiy (normativ va individual) aktlarining nazariy huquqiy tavsifi tahlil etilgan.

Bunda ijtimoiy boshqaruvning asosiy turlaridan biri davlat boshqaruvidir, u davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshirilishi, davlat boshqaruv organlari faoliyatining mazmuni istiqbolni belgilash, rejalashtirish, moliyaviy ta'minlash, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, hisobga olish va nazorat qilishdan iborat ekanligi hamda davlat boshqaruvining keng tarqalgan vazifalaridan biri bo'lib, barcha davlat organlari ularni o'z faoliyati davomida qo'llash tartiblari haqida ma'lumotlar berilgan. Davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish, davlat apparatining ishini yaxshilash, boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning deyarli barchasi ma'muriy huquq normalari yordamida amalga oshirilishi, ma'muriy huquq davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni, ya'ni davlat organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solinishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Davlat boshqaruvi, ma'muriy huquqiy shakllar, ijro hokimiyati organlari, huquqiy shakllar, nohuquqiy shakllar, huquq normasini o'rnatish, huquqni qo'llash, huquqiy (normativ va individual) aktlarni qabul qilish, ma'muriy huquqiy shartnomalarni tuzish, yuridik ahamiyatli boshqa harakatlarni amalga oshirish, normativ aktlar, individual aktlar.

Har qanday faoliyat singari davlat boshqaruvi faoliyati ham ma'lum bir shakllarda ifodalanadi. Bu jarayonda ijro hokimiyati organlarining (boshqaruv faoliyati asosiy subyekting) vazifalari, funksiyalari va vakolatlari amalga oshirilganligi sababli, birinchi navbatda, mazkur hokimiyat subyektlari faoliyati shakllarining muammosi

vujudga keladi. Ushbu faoliyatning shakllarini aniqlash orqali davlat-boshqaruv faoliyatining mazmunini chuqurroq anglash mumkin.

Ushbu faoliyatning shakllarini aniqlash orqali davlat-boshqaruv faoliyatining mazmunini chuqurroq anglash mumkin. Boshqaruvning shakli aniq subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan ma'lum bir harakatlarda ifodalanib, boshqaruv faoliyati ning, boshqaruv ta'sirining mazmunini yoritib beradi.

Boshqaruvning shakli – aniq subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan ma'lum bir harakatlarda ifodalanib, boshqaruv faoliyatining, boshqaruv ta'sirining mazmunini yoritib beradi. Boshqaruv shakllari huquqiy mazmunga ega, ya'ni normativ huquqiy akt orqali o'rnatiladi. Ba'zi hollarda boshqaruv shakllari normativ o'rnatilmagan bo'lishi ham mumkin va bularni boshqaruvning huquqiy shakllari jumlasiga kiritish mumkin emas.

Boshqaruvning huquqiy shakllar, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi. Bular:

- huquq normasini o'rnatish;
- huquqni qo'llash.

Huquq normasini o'rnatish-ommaviy boshqaruvorganlarga qonunlar bilan belgilab berilgan vakolatlarini, huquqva majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlarni aniqlashtirishga qaratilgan ijro hokimiyati organlarning norma ijodkorligi faoliyatidagi harakatlaridir.

Huquqni qo'llash-ommaviy boshqaruv organlarivaular mansabdor shaxslarining qonunlar bilan belgilab berilgan vakolatlarini huquqva majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlarining ijro hokimiyati organlari tomonidan huquq normasi o'rnatilganidan keyin uni qo'llash.

Davlat boshqaruvi faoliyatining tashqi ko'rinishlari turli xil bo'lganligi sababli uni har xil asoslarga ko'ra tasniflash mumkin.

Boshqaruv faoliyatining (boshqaruv harakatlarining) asosiy ikki shaklini ko'rsatib o'tish mumkin:

1) boshqaruv faoliyatining (boshqaruv harakatlarining) huquqiy shakllari, ya'ni ma'lum bir yuridik mazmunga ega bo'lgan va yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan shakllar. Mazkur shakllar boshqaruv organlari faoliyatining asosiy hakllari bo'lib, davlat vazifa va funksiyalarini maqsadga muvofiq va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

2) boshqaruv faoliyatining (boshqaruv harakatlarining) nohuquqiy shakllari, ya'ni boshqaruvning huquqiy shakllariga asoslanuvchi va ularning amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi shakllar bo'lib, tashkiliy va moddiy-texnik tadbirlar orqali namoyon bo'ladi.

Huquqiy shakllar o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi:

- huquqiy (normativ va individual) aktlarni qabul qilish;

- ma'muriy huquqiy shartnomalarni tuzish;
- yuridik ahamiyatli boshqa harakatlarni amalga oshirish;

Boshqaruvning huquqiy aktlari ommaviy boshqaruv oldida turgan maqsad va vazifalarga erishish uchun boshqaruv harakatlarini amalga oshirishning muhim huquqiy shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Huquqiy (normativ va individual) aktlar haqidagi ma'lumotlarni keyingi paragrafda ko'rib chiqamiz.

Boshqaruv faoliyatini (harakatlarini) amalga oshirishning huquqiy shakllaridan biri bu ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzish hisoblanadi.

Ommaviy huquqda huquqiy tartibga solishning alohida usuli hisoblangan shartnomalardan ham foydalanadi. Ommaviy huquqiy sohada shartnomalar ommaviy manfaatlarni qanoatlantirish maqsadida boshqaruv funksiyalarini (masalan, muvofilashtirish, bo'ysinuv, tashkil etish, taqsimlash).

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar jarayoni boshqaruvning ma'lum bir ko'rinishi sifa tida ma'muriy jarayontuzilishiga kiradi.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar jarayoni nazariy jihatdan subyektlariga ko'ra ikkigurunga bo'linadi. Bular:

- yuridik shaxslar bilan tuziladiga ma'muriy-huquqiy shartnomalar;
- jismoniy shaxslar bilan tuziladiga ma'muriy-huquqiy shartnomalar.

Muddatiga ko'ra:

- ma'lum muddatga ko'ra tuziladigan ma'muriy-huquqiy shartnomalar;
- noma'lum muddatga tuziladigan ma'muriy-huquqiy shartnomalar.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalar:

- ommaviy shartnomalarning bir turi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi;
- ma'muriy-huquqiy shartnomada uning doimiy ishtirokchisi hisoblangan hamda hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari va tartibga solish funksiyasiga ega bo'lmagan turli subyektlar (masalan, nodavlat korxonalar va tashkilotlar, fuqarolar) ishtirok etadi.

Ma'muriy-huquqiy shartnomalarni tuzishning asosiy talablari sifatida quyidagilar nazarda tutiladi:

- a) jamiyat va davlat (ommaviy) manfaatlarini qondirish;
- b) ma'lum bir boshqaruv vazifalari va funksiyalarni amalga oshirishning ma'muriy tartibini o'rnatish;
- v) boshqaruv organlari tomonidan nazoratning amalga oshirilishi;
- g) majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan ikkinchi tomonning o'z majburiyatlarini bajarmagani yoki lozim darajada bajarmaganida, davlat organi (mansabdor shaxs)ning shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish imkoniyatiga ega bo'lishi.

Davlat organlari (mansabdor shaxslar) boshqaruv faoliyatini amalga oshirish vaqtida amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan boshqa yuridik ahamiyatli qarakatlarni ham sodir etishlar mumkin. Jumladan, bunday harakatlarga fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish kiradi. Murojaatlarning ko‘rib chiqilishi vaqtida davlat organlarining, jamoat birlashmalarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning xodimlari tomonidan fuqarolarning o‘z roziligisiz ularning shaxsiy hayotiga doir ma‘lumotlarning yoki davlat siri yoxud qonun muhofazasidagi boshqa sir hisoblangan ma‘lumot larning, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur etkazadigan o‘zga axborotlarning oshkoretilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, murojaatga daxldor bo‘lmagan, fuqaroning shaxsi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni surishtirib bilishga ham yo‘l qo‘yilmaydi. Fuqaroning iltimosiga binoan uning shaxsiga doir har qanday ma‘lumot oshkor etilmasligi kerak.

Davlat boshqaruv organlarining boshqaruv jarayonida amalga oshiradigan ikkinchi yuridik ahamiyatli harakatlari - bu notarialharakatlarni amalga oshirishdir.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, davlat organlari (mansabdor shaxslar) nafaqat boshqaruv aktlarini qabul qilish yoki ma‘muriy-huquqiy shartnomalarni tuzish, balki boshqa yuridik ahamiyatli harakatlarni sodir etish orqali amalga oshiradi.

Boshqaruv faoliyatini nohuquqiy shakllari hokimiyati organlarining davlat-hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq emas. Bunday shakllarni qo‘llash yuridikoqibatlarini keltirib chiqarmaydi, ma‘muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi yoki ularni o‘zgartirmaydi. Shu sababli bu shakllar “nohuquqiy” deb ataladi. Nohuquqiy shakl huquqqa xilof (qonunga) shakl emas, balki biron-bir huquqiy oqibatni keltirib chiqarmaydi. Ular huquqiy shakllarning amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Boshqaruv faoliyati (harakatlari)ning nohuquqiy shakllari misollar bilan:

1) tashkiliy harakatlar yoki tadbirlarni amalga oshirish (masalan, majlislar o‘tkazish, ilg‘or va namunali tajribani, boshqaruvning salbiy holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tarqatish); uslubiy ko‘rsatmalarni tayyorlash; joylarda ijrochilarga ko‘maklashish va boshqalardan iborat.

Tashkiliy harakatlar yoki tadbirlar boshqaruv faoliyati jarayonida qo‘llanilib, huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi, o‘zgartirmaydi yoki bekor qilmaydi. Ular boshqaruv funksiyalarini amalga oshirmaydi.

2) moddiy-texnik harakatlar, ya‘ni masalan, davlat-xizmat faoliyati samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan va ish yuritish, ro‘yxatga olish, rasmiylashtirish, hujjatlar, ma‘lumotlar, materiallarni ko‘paytirish va yuborish, axborotlar bilan ishlash, analitik hisobni yuritish, moddiy-texnik ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruv faoliyatining shakllari.

Boshqaruv faoliyatining bu shaklini amalga oshirish nafaqat xodimlarning yuqori tayyorgarlikka ega bo'lishigabalkidavlat boshqaruvi organlarining ma'lum texnika bilan jihozlanganligiga ham bog'liqdir.

Davlat boshqaruvi murakkab, harakatchan tizimga ega bo'lib, uning har bir elementi ijtimoiy hayotni tartibga solishga ta'sir ko'rsatadi. Yuridik adabiyotlarda davlat boshqaruvining tizimlilik xususiyatiga alohida e'tibor beriladi. Davlat boshqaruvining tizimliliigi belgilangan maqsad va vazifalarga erishish hamda boshqaruv funksiyalarini samarali amalga oshirishni ta'minlash kerak. Boshqaruv funksiyalari muammosini o'rganish boshqaruvning tuzilishi va tizimini tashkil etish, boshqaruv organlarining obyektiv ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi.

Ommaviy-huquqiy tartibga solish esa, normativ va imperativ xususiyatdagi ko'rsatmalar vositasida amalga oshiriladi. U umumiy maqsadlarga erishish va ommaviy manfaatlarni qondirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning irodasi va hulq-atvori (yurish-turishi)ga hokimiyat-boshqaruv ta'sirini ko'rsatadi.

Boshqaruv funksiyalari – boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga nisbatan aniq yo'naltirilgan ta'sir etishi (tashkil etish, tartibga solish, nazorat qilish) hisoblanadi. Boshqaruv funksiyalari aniq mazmunga ega bo'lib, boshqaruvning uslublari va shakllari yordamidaboshqaruvning uslublari va shakllari yordamida (masalan, majburlov choralari, huquqiy aktlarni qabul qilish, bo'ysunuvchilik ta'siri amalga oshiriladi. Yuridik adabiyotlarda boshqaruv funksiyalari bilan bir qatorda boshqaruv organlarining funksiyalari ya'ni ularning obyektga nisbatan boshqaruv ta'sirini ham uchratish mumkin.

Ommaviy huquqiy boshqaruv organlari faoliyatida boshqaruvning ma'muriy mamuriy-huquqiy shartnoma shakli O'zbekiston huquq tizimi uchun yangi shakl bo'lib, bugungi kunda amaliyotda kamuchraydigan va yetarli darajada ilmiy tadbiq etilmagan qismidir. O'zbekiston Respublikasijrohokimiyati organlari tizimida ham ma'muriy huquqiy shartnomalardan goydalangan holdagiboshqaruv shakli mavjudligini faqatulatoryetarli darajada ilmiy tadbiq etilmaganligini kuzatish mumkin.

Boshqaruv faoliyatining bu shaklini amalga oshirish nafaqat xodimlarning yuqori tayyorgarlikka ega bo'lishiga, balki davlat boshqaruvi organlarining ma'lum bir texnika bilan jihozlanganligiga ham bog'liqdir.

Chunki, bu faoliyatga boshqaruv aktlarini qabul qiluvchi va amalga oshiruvchi boshqaruvchilar (davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslar), shuningdek, fuqarolar hamda moliyaviy, tashkiliy va moddiy resurslar jalb qilingan.

Takidlash kerakki, ko'plab adabiyotlarda boshqaruvning nohuquqiy shakli degan ta'rif ishlatilgan. Fikrimizcha ushbu atama uning asl ma'nosini bera olmaydi. Shu ilan birga bunday atama talabalar orasida uni huquqqa xilof degan ma'nolarda tushunishiga

ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun ommaviy boshqaruv organlarining boshqaruv shakllarini huquqiy va tashkiliy deb atasak ham bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

I. Rahbariy adabiyotlar:

1.1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. – 10-b.

1.2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / SH.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

1.3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bwlishi kerak. -T: “O‘zbekiston”, 2017.-104 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

2.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz/docs/35869>.

2.2. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 20.04.2021 yildagi O‘RQ-682-son

2.3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi 432-II-son Konstitutsiyaviy qonuni // 12.12.2002 y. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002 y. 12-son, 213-modda

2.4 O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-son Qonuni // 02.09.1993 y. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son

O‘quv adabiyoti

1. Административное право (Общая часть) И.А. Хамедов, Л.Б. Хван, И.М. Цай. 2012 г. Т.: Изд-во «Консоулаудитинфоми- Нашр». - 592 с.

2. Ма’muriy huquq: Darslik: to‘ldirilgan 4-nashr U.X. Muhamedov I.A. Xamedov, N.T. Ismailov va boshqalar. -T: O‘zbekiston Respublikasi IIB akademiyasi. 2017.-524 b.

3. Административное право Республики Узбекистан: Учебник для юридических вузов // Авт. коллектив: Х.Р. Алимов. Л.И. Соловьева и др. - Т.: «Адолат» 1998. - 483 с.

4. Бахрах Д.Н. Административное право России. Учебник для вузов. - М.: Издательства НОРМА, 2000. - 678 с.

5. Габричидзе Б.Н., Йелисеев Б.П. Российское административное право. Учебник для вузов. М.: Издательская И НОРМА-ИНФРА М, 1998. -451 с.

5. Ма'мурийуқ. Yuridiktexnikumlaruchundarslik. В.Мусаев D. Artikov, В. Qosimov. Toshkent davlat yuridik universiteti. 2021 yil

6. Гаврилов Ю.Н. Служебное право: Учебник. - М : и:К, 1996.- 328 с.

7. Д.Н. Бахрах. Административное право России. Учебник для вузов. - М.: ИЮРМА, 2002. - 541 с.

8. А.А. Ли. Государственная служба. Учебное пособие. Г.: ТПОИ, 2008. - 173 с.

Ю. Мирейский Б.А. Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебник для юридических вузов. Г.: «Адолат» 1998.-240 с.

9. Ма'мурийуқ. D. Artikov. – O'quv qo'llanma 2021 yil.